



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 8-aprel, № 68 (9239)

Chorshanba

Saytimgiza o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASINI YUKSALTIRISHGA QARATILGAN USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari sport nafaqat musobaqa, balki sog'lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon etadigan katta kuch ekanini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, so'ngi to'qqiz yilda 1,5 mingdan ziyod mahallalarda 1 ming 774 ta zamonaviy sport maydonchasi barpo etildi. Hududlarda 200 dan ortiq yirik sport inshootlari, 4 mingga yaqin xususiy sport klublari ish boshladi. Sport bilan professional shug'ullanuvchi yoshlar soni 2 karra oshdi, olimpiya terma jamoalari sportchilari 2 barobar, paralimpiya bo'yicha esa 3 barobar ko'paydi.

Birgina o'tgan yilda sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 452 ta oltin, 418 ta kumush va 501 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Ularning 50 nafardan ziyodi jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi.

Yig'ilishda sohada erishilayotgan yutuqlar bilan birga mavjud muammo va kamchiliklar ham chuqur tahlil qilindi.

Bugun olimpiada sport turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan 26 ta federatsiya rahbarlari va hokimlar joylardagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solmagani tanqid qilindi. Xususan, 207 ta oliygoh, 15 ta olimpiya va paralimpiya markazi, 310 ta sport maktabi, 16 ta sport internatining imkoniyatlaridan samarali foydalanilganda, chempion tayyorlash va musobaqalarga litsenziya qo'lga kiritish borasida natijalar yanada yuqori bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Bu borada ijobiy tajribalar ham qayd etildi. Masalan, Zarbdor tumanida o'tgan yili 23 ta mahalladagi 34 ming yosh ommaviy sportga jalb etilgan. Tumanda 3 ta yangi sport zali qurilib, stol tennisi, taekvondo va voleybolga ixtisoslashtirilgan. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda 2 ta usti yopiq futbol maydoni va fitnes klub tashkil qilindi. Natijada Zarbdor tumani ikk bor voleybol va stol tennis bo'yicha joriy yilgi O'zbekiston chempionatiga mezbonlik qiladi.

Mutasaddirlarga Zarbdor tajribasini o'riganib, uni barcha hududlarda joriy qilish topshirildi.

Ayrim maktablarda to'garaklar faqat nomiga tashkil etilgani, shu bois ularga 3-4 nafardagina bola qatnashib kelayotgani ko'rsatib o'tildi. Jumladan, o'tgan yili Jizzax, Qashqadaryo va Farg'onadagi maktab o'quvchilarining to'rtidan biri jismoniy tayyorgarlik bo'yicha minimal talabni ham bajara olmagani.

Hokimlar oldiga har bir maktabda

sport to'garaklari uchun zarur sharoit yaratish, qamrovni oshirish va bolalarni sportga keng jalb etish vazifasi qo'yildi.

Bugun ayrim ixtisoslashtirilgan sport maktablarining natijasi oddiy sport maktablaridan farq qilmay qolgan. Masalan, Termez shahridagi 4 ta ixtisoslashtirilgan maktabning natijasi Jarqo'rg'ondagi bitta sport maktabichalik emas. Jarqo'rg'on sport maktabi o'tgan yili Osiyo va jahon chempionatlarida 6 ta sovrin olgan bo'lsa, viloyatdagi 4 ta ixtisoslashtirilgan maktabda jami 1 ta medal bor, xolos.

Shu munosabat bilan har bir ixtisoslashtirilgan sport maktabi direktori, jamoasi va murabbiylarining ish uslubini o'zgartirish, "o'sish nuqtalari"ni aniq belgilash, ularning oylik maoshini tarbiyalanuvchilar natijasiga bog'lash zarurligi ta'kidlandi.

Qolaversa, yuqori natijaga erishgan sport maktablarini amaldagi rag'batlantirishdan tashqari yana 500 million so'mdan alohida mukofotlash tizimi joriy etildi.

Oliy ta'lim muassasalarida sportni rivojlantirish ishlari ham tanqidiy ko'rib chiqildi. Federatsiyalar bilan hamkorlik, iqtidorli talabalarga individual murabbiy birlashtirish ishlari yetarli emasligi qayd etildi. Jizzax politehnika instituti, Toshkent tibbiyot universitetining Termez filiali, Qarshi davlat texnika universiteti va Buxoro davlat universitetida talabalarining 70 foizi jismoniy normativlarni topshira olmagan. Bu esa mazkur oliygohlarda sport klublari yetarli darajada ishlamayotganini anglatadi.

Shu munosabat bilan 207 ta oliygoh rektorlariga Termez davlat universitetining bu boradagi ijobiy tajribasini o'riganib, sportni rivojlantirish bo'yicha bir yillik aniq reja ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilishda alohida sport turlari kesimida ham natijalar va muammolar tahlil qilindi. Xususan, o'q otish bazasida zarur sharoitlar yaratilgani tufayli ushbu sport turida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Futbol, sport kurashlari, velosport, yengil atletika va suzishda ham ijobiy siljishlar borligi e'tirof etildi.

Shu bilan birga, Jizzaxdagi 6 ta qilichbozlik bazasida shug'ullanuvchilar soni 100 nafarga ham yetmasligi, batut va akrobatika bo'yicha salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani, tennis va ot sportida natijalar yetarli emasligi tanqid qilindi.

Bugun sportchilarni jarohatdan tiklash, mushak holatini tekshirish va

funksional tahlil qilish ishlari, asosan, xorijda amalga oshirilayotgani, federatsiyalar sport shifokori, farmakolog va diyetologlarni chetdan jalb qilishga majbur bo'layotgani ta'kidlandi.

Endilikda har bir ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazi tegishli sport federatsiyalari bilan hamkorlik qiladi. Ular har oy terma jamoa a'zolarining sog'ligini diagnostika qiladi, jarohat olish xavfini baholaydi, jismoniy yuklamani ilmiy tahlil qilib, murabbiylarga tibbiy tavsiyalar beradi.

Davlatimiz rahbari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tashabbuslarni ham ilgari surdi.

Endilikda mahallada ommaviy sport natijadorligi faqat qamrov bilan emas, balki aholining salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham baholanadi. Har bir viloyatda bittadan tumanda "salomatlik balansi" shakllantirildi. Sport bilan faol shug'ullanuvchi aholi orasidan "sog'lom hayot volontyorlari" korpusi tashkil qilindi. Ular mahallalarda sport va sog'lom turmush tamoyillarini targ'ib qiladi.

Har bir tumanda ushbu tizimda eng namunaviy bo'lgan 10 tadan mahallaga bepul sport formasi va anjomlari berib boriladi. Qaysi mahallada sportga qamrov oshsa, aholining salomatligi yaxshilansa, yurak-qon tomir va diabet kasalliklari kamaysa, yil yakuni bilan volontyor hamda mahalla raisiga 15 million so'mgacha mukofot beriladi. Ushbu mahallada ommaviy sportga mas'ul trenerga esa 200 foizgacha oylik ustama to'lanadi.

Dunyoda maxsus jihoz va katta infratuzilmani talab qilmaydigan intensiv mashg'ulotlar, jumladan, kross-fit ommalashayotgani qayd etildi. Shu bois 1-maygacha barcha maktab va texnikumlarda bu bo'yicha to'garaklar tashkil etish topshirildi. Kelgusi yildan kross-fit "Besh tashabbus" tizimiga kiritiladi.

Yig'ilishda davlat organlari va tashkilotlarida ham sportni ommalashtirish bo'yicha yangi tartib belgilandi. Endi har bir vazir, tarmoq va bank rahbari, viloyat va tuman hokimi o'z xodimlarining sport bilan shug'ullanishi uchun namuna bo'lishi va sharoitlarni kengaytirishi shart.

Shu maqsadda haftaning bir kuni sport kuni sifatida belgilanadi. Bu kunda vazirlik, idora va tashkilotlarda sport mashg'ulotlari o'tkaziladi. Joriy yildan boshlab har yili vazirliklar, tarmoqlar, banklar va hokimliklar

o'rtasida respublika birinchiliklari o'tkaziladi.

Xususiy sektor mehnat jamoalarida ham ommaviy sportni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, tadbirkorlar o'z ishchi-xizmatchilari uchun sport zali va maydoncha qurish hamda jihozlashga qilgan xarajatlari foyda solig'i bazasidan chegira oladi. Jalb qilingan murabbiylar uchun daromad solig'i va ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilanadi.

Yig'ilishda aholini sportga jalb qilish va seleksiya ishlari "mahalla - maktab - sport muassasasi - federatsiya" zanjiri asosida mutlaqo yangi yondashuv joriy etilishi ma'lum qilindi.

Endi oliygoh rektori, federatsiya rahbari va hokim o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Unga ko'ra, hokimlar hududdagi maktab, texnikum va boshqa sport obyektlarida darsdan tashqari vaqtda sport to'garaklari tashkil etish uchun shart-sharoit yaratadi.

Shuningdek, sport yo'nalishidagi oliygohlarda talabalarini dual ta'lim bilan qamrab olib, ularni murabbiylik qilish uchun to'garaklarga yuborish muhimligi qayd etildi. Bunday talabalarga avtomatik tarzda murabbiylik sertifikatini beriladi. To'garaklardan tushgan daromadning 50 foizi murabbiy talaba ixtiyorida qoladi. Dual ta'lim bitiruvchilariga diplom bilan birga hakamlik sertifikatini ham beriladi.

Yig'ilishda joriy yilda yangi tizim orqali doimiy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 2 karra oshirib, 1 million nafarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Mutasaddirlarga sun'iy intellekt yordamida sportchi va murabbiylar natijalarini tahlil qilish, mashg'ulotlar rejasini tuzish imkonini beradigan yagona platforma yaratish topshirildi.

Sport sohasidagi ilmiy ishlar esa bundan buyon faqat dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan bo'lishi, natijasi to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga joriy qilinishi shartligi ko'rsatib o'tildi. Agar olimlarning ilmiy ishi natija berib, sportchilarning yutuqlari va xalqaro musobaqalardagi medallari ko'paysa, bunday olimlar 100 million so'mdan mukofotlanadi.

Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Joriy yildan Prezident olimpiadasida doirasida musobaqa o'tkaziladigan sport turlari 2 karra ko'paytirilib, 21 taga yetkaziladi. Endi mazkur musobaqalar parasport bo'yicha ham tashkil etiladi. Har

bir tuman va viloyat hokimi o'z hududida Hokim olimpiadasini o'tkazadi. Ularning o'liblari Prezident olimpiadasiga yo'llanma oladi.

Adaptiv sport turlari bo'yicha kadr tayyorlash va malaka oshirish tizimi ham tubdan yangilanadi. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent filiali inklyuziv sport bo'yicha tayanch oliygohga aylandi.

Prezidentimiz parasportchilarimiz erishayotgan natijalarga ularga tunu kun hamrohlik qilayotgan fidoyi insonlarning hisssasi katta ekanini ta'kidladi. Endi o'quv-yig'inlar, respublika va xalqaro musobaqalarda parasportchiga hamrohlik qilgan shaxslarning transport va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Ularga har oy sport maktabi trenerlari oyiliga teng miqdorda maosh to'lanadi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda sport inson salomatligi va yuqori natijalar garovi bo'lish bilan birga daromad keltiradigan sohaga ham aylanishi zarurligini ta'kidladi.

Shu nuqtayi nazardan, futbol bo'yicha milliy chempionat o'yinlarini tashkil etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Ayrim o'yinlar ish vaqti o'tkazilayotgani sababli muxlislar tashrifi kutilgan darajada emasligi aytili.

O'yinlar vaqtini dam olish kunlari yoki ish kunlari kechki soat 19:00 dan keyin belgilash, stadionlar atrofida qo'shimcha xizmatlar, musiqiy va ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish, muxlislar uchun qulay transport qatnovini yo'lga qo'yish, arzon futbol turpakellarini taklif etish orqali stadionlarga muxlislar tashrifini keskin oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi berildi.

Yig'ilishda joylardagi sport infratuzilmasi holati ham ko'rib chiqildi. Qayd etilganidek, hududlarda 39 ta ochiq va yopiq sport inshooti ta'mirtalab ahvolda bo'lgani sababli to'liq ishlalilmayapti. Mutasaddirlarga bunday obyektlarni zamonaviy sport majmualariga aylantirish uchun qulay sharoitlarga xususiy sheriklikka berish bo'yicha qaror loyihasi ishlab chiqish topshirildi.

Sport maktablarida yoshlar qiziqadigan noolimpiya sport turlari bo'yicha ham seksiyalar tashkil etish, O'zbekiston noolimpiya sport turlari konfederatsiyasini tuzish taklifi ma'qullandi.

Yig'ilish davomida davlatimiz rahbari soha rahbarlari va hokimlarning hisobotlarini tingladi, tadbirkor va sportchilar bilan muloqot qildi.

O'Z.A.

ROSSIYA BILAN PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH QO'LLAB-QUVVATLANDI

7-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Valentina Matviyenkonni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga ikki mamlakat parlamentlari faol hissa qo'shayotgani alohida mamnuhiyat bilan qayd etildi.

Parlamentlar yuqori palatalari hamkorligi bo'yicha komissiyaning yig'ilishlari har yili o'tkazib kelinmoqda. MDH Parlamentlararo Assambleyasi doirasidagi aloqalar ham samarali yo'lga qo'yilgan.

Muloqot yakunida O'zbekiston yetakchisi ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi yaqin va sermahsul hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashini yana bir bor tasdiqladi.

O'Z.A.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



KENG KO'LAMLI ISLOHOTLARNING HUQUQIY ASOSI VA XALQCHIL NORMALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda keng ko'lamli islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga oid, jumladan, texnik jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirishga, harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining davlat pensiya ta'minotiga, mahsulotlarning umumiy xavfsizligiga, bozor nazoratini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, qurilish sohasida davlat nazorati va boshqaruvini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi kuchaytiriladi

Dastlab deputatlar "Harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolarining davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, general-leytenant Shuhrat Xolmuhamedov ma'ruza qildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi va maxsus tuzilmalar xodimlari, shuningdek, ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Loyiha bilan harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolarini davlat pensiyalari bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini qonun bilan belgilash, ushbu pensiyani tayinlash shartlari, turlari, miqdorlari va tartibiga oid normalarni takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Xususan, harbiy xizmatda 30 yildan ortiq xizmat qilganlar uchun pensiyaning bazaviy miqdorini aniqlashda ish haqining hisobga olinadigan miqdorini 75 foizdan 100 foizga oshirish, shuningdek, pensiya tayinlashda asos bo'ladigan pensiyani hisoblash bazaviy miqdorini o'n baravaridan kelib chiqib hisoblash amaliyotini o'n ikki baravaridan kelib chiqib amalga oshirish taklif etilmoqda.

Taqdim etilayotgan imtiyozlar Vatanimiz va xalqimiz xavfsizligini ta'minlashda uzoq yillar fidokorona xizmat qilgan, o'z hayotini yurtimiz istiqbol uchun baxshida qilib fidoyilik ko'rsatgan harbiylarimizni qo'shimcha rag'batlantirish, yoshlarimizda bu sohaga mehr va ishtiyoqni oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi maqsadlarni nazarda tutgan.

Muhokamada siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari, bir qator deputatlar qonun loyihasi qabul qilinishining bugungi kundagi ahamiyati, dolzarbligi haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Qayd etilganidek, qonun loyihasiidagi normalar harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish samaradorligi va harbiy xizmat jozibadorligini oshirish, pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni aniq tartibga solish, shuningdek, sohaga yoshlarning qiziqishi va intilishini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rinni tutadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

"Muvofiqlik prezumpsiyasi" tamoyili joriy etiladi

"Mahsulotlarning umumiy xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

7-aprel kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqda o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

O'n to'rtinchi yalpi majlisning birinchi ish kunini senatorlar "Shaharsozlik renovatsiyasi to'g'risida"gi qonunni muhokama qilishdan boshladi.

Mamlakatimizda shaharlarni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, fuqarolarning yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qonunning asosiy maqsadi aholining yashash sharoitini yaxshilash, seysmik jihatdan xavfli va jismonan eskirgan binolarni bosqichma-bosqich yangilash, muhandislik-kommunikatsiya

tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda shahar muhitini zamonaviy talablar asosida shakllantirishdan iborat.

Shaharsozlik renovatsiyasini amalga oshirish jarayonlari ochiq va shaffof bo'lishi, renovatsiya dasturi jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan "Shaharsozlik renovatsiyasi" elektron platformasiga joylashtirilishi va ommaviy axborot vositalari hamda vakolatlil organlarning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib borilishi alohida belgilanmoqda.

Shu bilan birga, kompensatsiyaning to'rt xil shakli nazarda tutilmoqda. Jumladan, kompensatsiya shaharsozlik renovatsiyasi hududidagi yangi yoki boshqa joydagi turar va noturar toifadagi obyektni mulk qilib berish, pul mablag'lari yoxud kelishuv bitimida nazarda tutilgan boshqa shakllar orqali amalga oshiriladi. Kompensatsiya shakli mulkdor va Shaharsozlik renovatsiyasini amalga oshirish direksiyasi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ixtiyoriy ravishda tanlanadi.



Mulkdorlarga yetkazilgan noquvayliklar uchun kompensatsiya miqdorining o'n ikki foizi miqdorida bir martalik pul mablag'lari berilishi belgilanmoqda.

Eng muhimi, tenglik va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining huquqlarini himoya qilishning ustuvortligi shaharsozlik renovatsiyasining asosiy

tamoyillaridan biri etib belgilanmoqda. Bundan tashqari, ko'chirish yoki vaqtincha ijaraga chiqish zarurati yuzaga kelganda fuqarolar tayyor hududga, nogironligi bo'lgan shaxslar esa qulay muhitga ega turarjoylarga ko'chirilishi nazarda tutilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT



Qonunda mulkdorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili belgilanib, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdor foydasiga talqin etilishi kafolatlari mustahkamlanmoqda.

Senat a'zolari o'z chiqishlarida eskirgan uy-joy fondini yangilash va aholiga zamonaviy infratuzilma yaratishga qaratilgan mazkur qonun shaharlarimizning barqaror va rejalari rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilinishi ta'kidlandi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, yalpi majlisda yangi tahrirdagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonun ham muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'ngi yillarda mamlakatimizda avtomobil yo'llari infratuzilmasi rivojlanirish bo'yicha keng ko'lami ishlari amalga oshirilmoqda. Biroq amaldagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonun bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi.

Yangi tahrirdagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonunning asosiy maqsadi avtomobil yo'llarini rivojlantirish, ulardan foydalanish tartibini belgilash, yo'l faoliyati sohasidagi munosabatlarni zamonaviy talablarga asosida tartibga solishdan iboratdir. Qonunda avtomobil yo'llari sohasida amal qilinishi shart bo'lgan asosiy prinsiplar aniq belgilab qo'yilmoqda. Ya'ni yo'llar ilmiy hisob-kitoblar asosida loyihalaniishi, qarorlar ochiq va shaffof bo'lishi, eng muhimi, yo'l harakati xavfsizligi ta'minlanishi, tabiatga zarar yetkazilmasligi hamda har bir fuqaro yo'llardan teng va qulay foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi belgilanmoqda.

Qonunda muhim yangilik sifatida avtomobil yo'llari bepul yoki belgilangan tartibda pullik bo'lishi mumkinligi mustahkamlanmoqda. Qonunga muvofiq avtomobil yo'llari sohasidagi maxsus vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi belgilanmoqda.

Qonunda yo'l harakati xavfsizligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, avtomobil yo'llarida sun'iy to'siqlar va notekisliklar yaratish taqiqlanmoqda, og'ir vazni va yirik gabaritli transport vositalarining harakatlantirishi esa faqat maxsus ruxsatnoma asosida amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Qonunda pullik yo'llarni tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish, to'lovlarini avtomatlashtirish tarzda undirish, foydalanuvchi va operator o'rtasidagi ommaviy shartnoma kabi munosabatlar tartibga solinmoqda.

So'zga chiqqanlar mazkur qonun

normalari yo'llarni asrash, avariya sonini kamaytirish va inson hayotini muhofaza etishga xizmat qilinishi ta'kidlab o'tildi.

Senatorlarning fikricha, ushbu qonunning qabul qilinishi, mamlakatimizda yo'l infratuzilmasi rivojlanishiga, harakat tezligi ortib, tirbandliklar kamayishiga, yo'l-transport hodisalarini soni qisqarishiga zamin yaratadi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shundan so'ng "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Mamlakatimizdagi ko'chmas mulk bozori so'ngi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda, yangi turarjoy massivlari barpo etilmoqda, ipoteka bozori kengaymoqda, investitsiyaviy faollik ortib bormoqda. Shu bilan birga, bozorda norasmiy vositachilarning ko'payishi, "yashirin iqtisodiyot"ning saqlanib qolishi va ayrim hollarda fuqarolarning huquqlari buzilishi kabi salbiy holatlar ham uchramoqda.

Yalpi majlisda senatorlar rieltorlik faoliyatini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning zamonaviy tendensiyalar va qonunchilikdagi o'zgarishlarga muvofiq qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelayotganini ta'kidladilar.

Mazkur qonunda rieltorlik faoliyatining asosiy prinsiplari belgilanmoqda, bu qonuniylik, xolislik, halollik, axborot maxfiylik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikni o'z ichiga oladi. Ushbu qoidalar orqali har bir rieltor yoki ko'chmas mulk agenti o'z mijoziga halol xizmat ko'rsatish, uning ishonchini oqlash majburiyatini oladi.

Rieltorlar professional jamoat birlashmalarining sohaga kirib kelishi – ushbu qonun bilan kiritilayotgan normalarning muhim jihatlardan biridir, ya'ni qonunda jamoat birlashmalari o'zini o'zi boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ular sertifikat beradi, rieltorlarning malakasini baholaydi va ularning kasbiy xulq-atvori ustidan nazorat olib boradi.

Senatorlar o'z chiqishlarida qayd etganidek, qonunning asosiy maqsadlari – biznesning "soyadan" chiqirishini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, legal biznes yuritishning nafuzini oshirish, "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni jalb qilishdir.

Shuningdek, yalpi majlis davomida senatorlar mazkur qonun ko'chmas mulk bozori ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini samarali himoyalashga xizmat qilinishi ta'kidlandi.

Senatorlar mazkur qonunni ma'qulladi.

Yalpi majlis davomida qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini izchil isloh etish hamda odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat – "Sud-eksportlik faoliyati to'g'risida"gi qonun ham muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, sud-eksportlik faoliyati sud ishlari har tomonlama, xolis va adolatli ko'rib chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sud ekspertizasi xulosalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchligi sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli qabul qilinishi uchun muhim shart hisoblanadi.

O'xirgi yillarda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birgalikda ayrim o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjudligi senatorlar tomonidan alohida qayd etildi.

Ushbu qonun amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, sohadagi muammolarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan. Unda:

– nodavlat sud ekspertizaning huquqiy maqomi, ularni tashkil etish, faoliyat yo'nalishlari belgilanmoqda, shuningdek, nodavlat sud-eksportlariga byuro tashkil etgan holda yakka tartibda faoliyat yuritishiga ruxsat berilmoqda;

– advokatning so'roviga asosan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq shartnoma asosida davlat va nodavlat sud ekspertlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazish tartiblarini nazarda tutilmoqda;

– sud-eksportlik faoliyatining yanada ishonchligini oshirish maqsadida akkreditasiya va validatsiya institutlari joriy etilmoqda;

– sud-eksportiza muassasalari (tashkilotlari), sud ekspertlari hamda sud-eksportiza tadqiqotlarida foydalaniladigan uslubiyotlar ro'yxatining davlat reestrini yuritish yo'lga qo'yilmoqda;

– davlat sud-eksportiza muassasalari ekspertlari hamda nodavlat sud ekspertlari faoliyati yuzasidan ekspert-malaka komissiyalari tuzilmoqda;

– sud ekspertlarining kasb-etika qoidalari va ekspertizani o'tkazishga doir cheklovlar joriy qilinmoqda (ekspertning yaqin qarindoshi, nodavlat ekspertiza muassasasi mulkdori bo'lsa va b.);

– Vazirlar Mahkamasi hamda vakolatli davlat organi sifatida Adliya vazirligining sud-eksportlik sohasini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatlari aniqlashtirilmoqda;

– nodavlat sud ekspertlarini birlashtiruvchi, ularga yaqindan ko'maklashuvchi Sud ekspertlari palatasini tashkil etish ko'zda tutilmoqda;

– sud ekspertizasi chet davlatning sud ekspertlarini jalb qilish orqali o'tkazish mexanizmlari belgilab berilmoqda.

Muhokama davomida senatorlar ta'kidlanganidek, qonunning qabul qilinishi sud-eksportlik faoliyatining mustaqilligi va shaffofligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarni mustahkamlash hamda fuqarolarning odil sudlovdan samarali foydalanishi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Senatning o'n to'rtinchi yalpi majlisida "Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni qoplash to'g'risida"gi qonun ham muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda davlat organi yoki mansabdor shaxsning noqonuniy qarori tufayli yetkazilgan zarar qoplash yagona qonunchilik hujjati bilan tartibga solinmasdan, 10 dan ortiq qonun va qonunositi hujjatlari bilan belgilangan.

Ammo fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplashda Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari mavjud emas. Shu bois ushbu sohada munosabatlarning va tartib-taomillarning qonuniy asoslarini mustahkamlash alohida qonun hujjatini qabul qilish zaruratini yuzaga keltirganda.

Mazkur qonun yuqorida qayd etilgan masalalarning huquqiy yechimi bo'lib, uning maqsadi davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lgan organing yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof faoliyati tufayli yetkazilgan zararining o'rni qoplash hamda zararining o'rni regress tartibida undirishni tartibga solishdan iboratdir.

Zararning o'rni qoplab berilganda va keyinchalik zarar yetkazgan aybdor shaxsga nisbatan qonunga muvofiq regress huquqi yuzaga kelgan taqdirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari aybdor shaxs faoliyat yuritayotgan yoki muqaddam ishlagan davlat organiga talabnoma kiritishi belgilanmoqda.

Qonunda qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va shaffoflik kabi asosiy prinsiplar belgilanmoqda.

Bundan tashqari, mulkiy zararlarni qoplash uchun hududiy maqsadli jam'armalar mablag'lari shakllantirish va ularning manbalari aniq ko'rsatilmoqda.

Senatorlar qayd etganidek, qonunning qabul qilinishi qonunga xilof qarorlar tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi to'g'risidagi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga hamda aybdor mansabdor shaxslarni

belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Senatorlar tomonidan ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida ayrim muammolar mavjudligi ta'kidlandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jarimalar miqdori kamligi sababli ular o'zining sezilarli tarbiyaviy va profilaktik ahamiyatini bermayapti.

Ma'muriy jarimalarning mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llanilishi esa korxonalar uchun sezilarli moliyaviy ta'sir ko'rsatmasdan, mulkdorda "jazosizlik tug'usi" shakllanishiga olib kelmokda.

Amaliyotda bunday muammolar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Qonun bilan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish hamda javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Jumladan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun yangi bob bilan to'ldirilib, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar belgilanmoqda.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 88-moddasi (atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik) to'ldirilib, yoqish uchun mo'ljallanmagan joylarda va (yoki) qurilmalarda yoqilg'ini, yoqilg'i sifatida foydalaniladigan moddalarni yoki moddalar aralashmasini, yoqilg'i hisoblanmaydigan materiallarni va chiqindilarni ochiq alanga oldirib yoqish, shuningdek issiqxonalarda, ishlab chiqarish binolarida, yondirish uskunalarida yoki boshqa obyektlarda yoqilg'i sifatida shinalarni, bitumni, mazutni, plyonkani, sintetik kartonni, rezinani, jun tolasini yoqish va shunga o'xshash komponentlarni o'z ichiga olgan

chiqindilarni yoqish uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Senatorlarning fikricha, qonunning qabul qilinishi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, tabiiy resurslarning kafolatlangan himoyalaniishiga, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda davlat ekologik nazoratini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng yalpi majlisda "Qo'riqlash faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjat jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar va tashkilotlarning mol-mulkini himoya qilish, shuningdek, qo'riqlash vakolatli Ichki ishlar vazirligi siyosatini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirishga qaratilganligi ta'kidlandi.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, ayrim ma'muriy huquqbuzarliklarni, jumladan, jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish, noqonuniy ov qilish, daraxtlarni kesish va boshqa ekologik qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish vakolatli Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamentining mas'ul xodimlariga berilmoqda.

Shuningdek, qo'riqlashning texnik vositalarini loyihalashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha ruxsatnoma berish vakolatini Ichki ishlar vazirligiga o'tkazish, tadbirkorlik subyektlari uchun esa xabardor qilish tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Muhokamada so'zga chiqqanlar ushbu qonun jamoat xavfsizligini mustahkamlash, aholi tinchligi va "Inson qadri – oliy qadriyat" tamoyilini amalda ta'minlashga xizmat qilishni ta'kidlandi.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonunda xavfsizlikni ta'minlashda jazolashga emas, balki profilaktikaga hamda jamoat tartibi, profilaktika va qo'riqlash faoliyati yagona tizim sifatida samarali ishlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

Senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.

MAQSAD – QULAY VA FAROVON YASHASH MUHITINI SHAKLLANTIRISH

Oliy Majlis Senati o'n to'rtinchi yalpi majlisining birinchi kunida xalqimiz manfaatlariga xizmat qiluvchi qator qonunlar muhokama etilib, ma'qullandi. Yurtodoshlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi ushbu hujjatlarining ahamiyati xususida senatorlarning mulohazalarini yozib oldik.

Munosabat

Barcha ziddiyatlar jismoniy va yuridik shaxslar foydasiga talqin qilindi

Abdulkhakim ESHMURATOV,
Oliy Majlis Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi:



– Mamlakatimiz qonunlarida har kim o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoyalash, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar va ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqlari kafolatlangan. Shuningdek, har kim yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ham egaligi belgilab qo'yilgan. Shunday bo'lsa-da, bu borada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham yo'q emas.

Xususan, bugungi kunda bunday zararlarning o'rni qoplash yagona qonunchilik hujjati bilan tartibga solinmagan. Bundan tashqari, fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar qoplashda Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari ham mavjud emas. Misol uchun, shu paytga qadar Toshkent shahrida yetkazilgan zararlarni kompensatsiya jam'armalari hisobidan qoplangan bo'lsa, boshqa hududlarda mahalliy byudjet mablag'laridan undirib berilgan.

Eng muhimi, yetkazilgan mulkiy zararlarni aybdorlardan regress tartibida undirish asoslari va tartibi ham qonunchilikda aniq belgilanmagan. Bu kabi holatlar ushbu sohada munosabatlar va tartib-taomillarning qonuniy asoslarini mustahkamlash uchun alohida qonunga ehtiyojni yuzaga keltirayotgan edi. Shu bois "Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni qoplash to'g'risida"gi yaqin qonun ishlab chiqildi va muhokamalar natijasida qabul qilindi.

Avvalgi huquqiy hujjatlardan farqli o'laroq mazkur qonunda "zararning o'rni qoplash",

"ma'naviy zarar", "moddiy zarar", "undiruvchi", "hududiy kompensatsiya jamg'armasi" kabi asosiy tushunchalar ko'llanilib, qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va shaffoflik kabi asosiy tamoyillar mustahkamlanmoqda.

Endilikda ushbu qonun bilan zararining o'rni qoplab berilganda va keyinchalik zarar yetkazgan aybdor shaxsga nisbatan qonunga muvofiq regress huquqi yuzaga kelgan taqdirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari aybdor shaxs faoliyat yuritayotgan yoki muqaddam ishlagan davlat organiga talabnoma kiritishi belgilanmoqda.

Ta'kidlash joizki, zararning o'rni qoplash yo'nalisida yuzaga keladigan nizolarni hal etish, kuzatuv kengashlarining qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish, jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat organlarining zarar o'rni qoplash bo'yicha o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar hamda noaniqliklar jismoniy va yuridik shaxslarning foydasiga talqin etilishi mustahkamlanayapti.

Ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolarning davlat organlari yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga hamda aybdor mansabdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga xizmat qiladi.

Rieltorlar faoliyati tartibga solinadi

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi:

– Ko'plab yangi turarjoy massivlarining barpo etilishi, ipoteka yo'nalisining kengayishi hamda mamlakatimiz ko'chmas mulk bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi investitsiyaviy faollikning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bozorida norasmiy vositachilarning ko'payishi, "yashirin iqtisodiyot"ning saqlanib qolishi va ayrim hollarda fuqarolarning huquqlari buzilishi kabi salbiy holatlar ham uchramoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikada 285 ta rieltorlik tashkiloti, 684 nafar rieltor hamda Rieltorlik tashkilotlari uyushmasi va O'zbekiston Rieltorlar gildiyasi faoliyat yuritmoqda.

2024-yilda ko'rsatilgan rieltorlik xizmatlari hajmi 50 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 108 nafar norasmiy vositachi (makler) umumiy qiymati 3,9 trln. so'mlik 19 mingta ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarda vakil sifatida qatnashgan. Bu raqamlar ham rieltorlik xizmatining ancha rivojlanganini ko'rsatadi.

Amaldagi "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun 2010-yilda qabul qilingan bo'lib, u bugungi rivojlanib borayotgan ko'chmas mulk bozorining zamonaviy talablarini qamrab olmagan.

Xususan, unda rieltorlik faoliyatini "soyadan" chiqarish, sohada yashirin amaliyotlarni qisqartirish, ko'chmas mulk bozorining raqamli transformatsiyasi va rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish bo'yicha huquqiy instrumentlar belgilanmagan. Shuningdek, rieltorlik subyektlari faoliyatining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar nazarda tutilmaganligi bois iste'molchilarning huquqlari buzilishiga sharoit yaratilgan.

Yangi tahrirdagi "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun, birinchi navbatda, biznesning "soyadan" chiqishini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Xo'sh, u qanday ishlaydi? Birinchidan, qonun "yashirin iqtisodiyot"ning shakllanishiga olib keladigan sabablar va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda xizmat ko'rsatish yo'nalisidagi norasmiy mehnat faoliyatini yuritish holatlarini oydinlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, rieltorlik faoliyatini tartibga solish shakli sifatida litsenziyalashni bekor qilish va ba'zi funksiyalarni o'zini o'zi boshqarish jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazishni ta'minlaydi.

Uchinchidan, rieltorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi va rieltorlar o'z yo'nalislaridagi professional jamoat tashkilotlari bilan birgalikda moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmagan holda rieltorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat tekshiruvini o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, rieltorlik xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilovchi milliy standartlar instituti

shakllantirilib, rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish, ko'chmas mulkka oid hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirish (kliring) imkonini beruvchi multiling tizimlarini tashkil etish tartibi joriy qilinadi.

Rieltorlar professional jamoat birlashmalarining sohaga kirib kelishi ushbu qonun bilan kiritilayotgan normalarning muhim jihatlardan biridir. Negaki, endilikda qonun bilan jamoat birlashmalari o'zini o'zi boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida belgilandi. Ya'ni ular sertifikat beradi, rieltorlarning malakasini baholaydi va kasbiy xulq-atvori ustidan nazorat olib boradi.

Jazo keltirilgan zararga mutanosib bo'lishi kerak

Anvar TO'YCHIYEV,
Oliy Majlis Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi:

– Hozirda mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sa'y-harakatlari 30 dan ortiq qonunlar, 300 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda.

Biroq o'rganishlar, o'tkazilgan tahlillar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda o'simlik va hayvonot dunyosini, ayniqsa, atmosfera havosini muhofaza qilish borasida ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun ma'muriy va jinoyi sanksiyalar miqdori sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfli darajasi hamda kelib chiqadigan oqibat miqdoriga nisbatan mutanosib emas. Atrof-muhitni ifloslantirish bilan bog'liq ayrim turdagi ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik faqatgina past miqdori ma'muriy sanksiyalar bilan chegaralangan.

GOLISHEV VYACHESLAV ARKADYEVICH



Davlat va jamoat arbobi Golishev Vyacheslav Arkadyevich shu yilning 7-aprel kuni 75 yoshida vafot etdi.

Vyacheslav Golishev 1951-yil 4-mayda Rossiya Federatsiyasining Omsk shahrida tug'ildi. 1972-yilda Toshkent xalq xo'jaligi institutini (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) tugatib, iqtisodchi mutaxassisligini oldi.

1992 - 1995-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jahon muammolari instituti direktori o'rinbosari, istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

1992 - 1995-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jahon muammolari instituti direktori o'rinbosari, istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga saylandi, parlamentarizm, mamlakatimizdagi o'zgarishlarning qonunchilik bazasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi.

Yangi avlod iqtisodchi kadrlarini tayyorlash borasida ham faol ish olib bordi.

Vyacheslav Golishevning mamlakatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi" faxriy unvoni, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan.

Davlat va jamoat arbobi, iqtisodiyot sohasidagi yirik olim va mutaxassis, yoshlarning mehribon ustози, samimiy va kamtarin inson Vyacheslav Arkadyevich Golishevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, SH. AYUPOV, S. TURDIYEV

KENG KO'LAMLI ISLOHOTLARNING HUQUQIY ASOSI VA XALQCHIL NORMALAR

Ushbu qonun loyihasi bilan nooziq-ovqat mahsulotlari uchun umumiy xavfsizlik qoidalari belgilanmoqda. Shu bilan birga, ayrim yuqori xavfli mahsulotlarga nisbatan yanada qat'iy talablar qo'yish ko'zda tutilayotgan.

Loyihada Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha bitimi talablari inobatga olingan. Xususan, texnik reglamentlar xalqaro savdoda ortiqcha to'siqlar yaratmasligi, mahsulotlar uchun teng shart-sharoitlar ta'minlanishi hamda iste'molchilarni chalg'ituvchi holatlarning oldini olish tamoyillari mustahkamlangan.

Loyihaga muvofiq, ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va sotuvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Ular mahsulotning talablariga mosligini baholab, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishi, zarur hollarda esa mahsulotni maxsus muvofiqlik belgisi bilan tamg'lashi shart bo'ladi.

Yana bir yangilik - "muvofiqlik prezumpsiyasi" tamoyili joriy etilayotganidir. Ya'ni amaldagi standartlarga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotlar xavfsiz, deb hisoblanadi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar o'rtaga tashlandi.

Dilmurod ARTIQOV, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:



Qonun loyihasida "jamoat manfaatlari" hamda "minimal va maqbul xavf-xatarlar" kabi baholovchi tushunchalar qo'llanilgani sababli ularni amaliyotda turlicha talqin qilish ehtimoli mavjud.

Loyihadagi normalar natijasida iste'molchilarni himoya qilish darajasi yangi bosqichga ko'tarilib, ularning mahsulotlarga ishonchi mustahkamlanadi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Milliy mahsulotlar eksporti kengaytiriladi

Majlisda mamlakatimizda texnik jihatdan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Unda mahsulotlarning muvofiqlikni baholash tizimini takomillashtirish, standartlarni ixtiyoriy qo'llash amaliyotini kengaytirish, metrologiya sohasini xalqaro talablar asosida qayta tashkil etish hamda akkreditatsiya organlari faoliyatini mustaqilligini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi yuzasidan qator savollar o'rtaga tashlandi.

Loyihaga muvofiq, amaldagi qator qonunlar, jumladan, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida" hamda "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, akkreditatsiya tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, uning shaffofligini ta'minlash va xalqaro standartlarga muvofiqligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qonun loyihasida javobgarlik mexanizmlari ham aniq belgilab qo'yilmoqda. Xususan, texnik reglamentlarda belgilangan majburiy talablarga rioya etmagan ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va sotuvchilarga nisbatan qat'iy moliyaviy sanksiyalar joriy etilishi belgilanayotgan.

Deputatlarning fikricha, texnik jihatdan tartibga solish sohasini xalqaro talablarga moslashtirish, davlat nazoratini optimallashtirish, innovatsiyalarni joriy etish sur'atlarini oshirish hamda milliy mahsulotlar eksportini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bozor nazorati tizimi - yangi bosqichda

Majlisda deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat - "Bozor nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Natijada bozorlarda mahsulotlar turi va hajmi izchil ortib boryapti.

hayoti va sog'lig'iga ta'sirini baholashda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan iste'molchilarning manfaatlarini hisobga olib, bozorga kirib kelgan barcha nooziq-ovqat mahsulotlarining inson hayoti va sog'lig'iga xavfsizligini hamda atrof-muhitga zarar yetkazmasligini ta'minlashga qaratilgan bozor nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Bozor nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Loyihada bozor nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmlari, xususan, nazorat xaridlari, mahsulotlarni ekspertizasi, joyiga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazishning huquqiy asoslari belgilanmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasida sifatsiz mahsulot ishlab chiqargan, import qilgan yoki tarqatgan shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini aniq belgilanishi, jumladan, mahsulot muomalasini vaqtincha to'xtatib turish, uni chaqirib olish yoki bozordan chiqarish kabi choralar nazarda tutilganligi iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Belgilangan texnik tartibga solish talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilayotganligi hamda iste'molda jiddiy xavf tug'diruvchi mahsulotlarni muomalaga chiqarganlik uchun moliyaviy jarimalar joriy etilishi xalq vakillari e'tiborida bo'ldi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar o'rtaga tashlandi.

Zafar XUDOYBERDIYEV, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:



Tushuntirish xatida keltirilishicha, qonun loyihasi 16 ta vazirlik va idora bilan kelishilgan. E'tirozlar bo'yicha bir to'xtama kelingan 12 ta vazirlik va idora tarkibida qonun loyihasining 10-moddasida bayon etilgan "Bozor nazoratini muvofiqlashtirish kengashi" tarkibiga kiruvchi, xususan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) kabilar bor.

Ushbu qonun loyihasi yuzasidan qator savollar o'rtaga tashlandi.

Qonun loyihasiga mas'ullar tomonidan bu bo'yicha atroficha tushuntirish berib o'tildi. Deputatlar muhokamalar davomida iqtisodiy operatorlarning javobgarligi, yetkazilgan zararini qoplash mexanizmlari, sohani moliyalashtirish hamda nizolarni ko'rib chiqish tartiblarini yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflarni ilgari surdi.

Majlisda mas'ul qo'mita taklifiga ko'ra, qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Ekstremizmga qarshi kurashish samaradorligi oshadi

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ekstremizmga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari axborot texnologiyalari hamda internet tarmoqlaridan faol foydalanib, ayniqsa, yoshlarni zo'ravonlik va radikal g'oyalarga jalb etishga urunayotganini kuzatilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikka mustahkamlash, ekstremistik g'oyalar tarqalishining oldini olish, yoshlarni turli zararli ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Hujjat bilan Jinoyat kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga jamoat xavfsizligi va tartibga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish nazarda tutilmoqda.



"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Aholi bandligi to'g'risida", "Noshirlik faoliyati to'g'risida" hamda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunlarga ham tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilyapti.

Dunyoda keskinlashib borayotgan notinchlik va ziddiyatlar sharoitida amaldagi qonunlarga kiritilayotgan bunday o'zgarishlar, eng avvalo, mamlakatimizdagi tinch va barqaror hayotni, mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

Ayollar va bolalar manfaatlari - ustuvor masala

Deputatlar ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda ayrim jinoyatlar tergovi samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o'qishda muhokama qildi.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarni jinsiy zo'ravonlik hamda axloqqa zid tajovuzlardan asrashga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda.

Shu munosabat bilan qonun loyihasida jinsiy erkinlikka, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarni tergov qilish vakolatini prokuratura organlariga o'tkazish taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, loyiha bilan fuqarolarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar doirasi ham kengaytirilyapti. Bozorlar, savdo komplekslari hamda savdo-g'ngilochar markazlari mulkdorlariga yong'in yuzaga kelishi natijasida uchinchi shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan uchun fuqarolik javobgarligi, shuningdek, ushbu obyektlarni yong'indan sug'urta qilish bo'yicha majburiyat yuklanmoqda.

Majlisda mas'ul qo'mita taklifiga ko'ra, qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Gulshana XUDOYOROVA, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi:



Albatta, taklif etilayotgan o'zgartirishlar ayollar va bolalarning huquqlari yanada ishonchli himoya qilinishiga, jinsiy zo'ravonlik holatlarini fosh etish va bu turdagi jinoyatlarni tergov qilish sifati oshishiga hamda jazoning muqarrarligi ta'minlanishiga, shuningdek, mazkur jarayonda qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan qat'iy prokuror nazorati o'rnatilishiga xizmat qiladi.

Qizg'in fikr-mulohazalar, takliflar bildirildi.

Qurilish sohasida yangi mexanizmlar

Majlisda qurilish sohasida davlat nazorati va boshqaruvi yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatda noqonuniy qurilishlarning oldini olish, aholining uy-joyga ehtiyojini ta'minlash hamda shaharsozlik sohasida huquqbuzarliklarni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hollarda vakolatli organlar roxusatsiz turarjoy binolarini qurish holatlari saqlanib qolayotgan, qator obyektlarda esa seysmik xavfsizlik talablariga to'liq rioya etilmayotgani aytiladi.

belgilanmoqda. Bunday qoidabuzarlik takroran sodir etilgan taqdirda esa jinoyi javobgarlik belgilash taklif qilinmoqda.

Shuningdek, Shaharsozlik kodeksiga "master reja" tushunchasini shaharsozlik hujjatlarining alohida turi sifatida kiritish ko'zda tutilmoqda.

Shokirjon AHMEDOV, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi a'zosi:



Qonun loyihasining qator normalari deputatlarining takliflari asosida qayta ko'rib chiqilib, tadbirkorlarning manfaatlaridan kelib chiqib yanada takomillashtirildi.

Albatta, belgilanayotgan yangi qoidalar ehtiyoj tobora ortib borayotgan binolar, jumladan, aholi turarjoylarining sifatlari qurilishini ta'minlashga qaratilgan.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Yong'in oqibatida yetkaziladigan zararlar kafolatli qoplanadi

Deputatlar yong'in xavfsizligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qildi.

Ta'kidlanganidek, amaldagi qonunchilikda yong'in xavfsizligi sohasida kompleks huquqiy, tashkiliy va profilaktik chora-tadbirlar hamda mexanizmlar to'liq yaratilmaganligi, ayrim huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanmaganligi ushbu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat-protsessual hamda Jinoyat kodekslariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Xususan, binolarning toifasidan kelib chiqib, texnik talablar, jumladan, yonuvchan qurilish materiallarini ishlatishni taqiqlash va yong'in natijasida yetkazilgan zararni qoplashdan tashqari aybdordan tovon undirish (tort law) institutini joriy etish nazarda tutilayapti.

Shuningdek, loyiha bilan obyektlarni yong'in xavfsizligi talablariga mosligi bo'yicha auditing o'tkazish tartibini yo'lga qo'yish belgilanmoqda. Bundan tashqari, loyiha bilan fuqarolarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar doirasi ham kengaytirilyapti.

Nodira JONIBEKOVA, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi a'zosi:



Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida deputatlar takliflari asosida aholi manfaatlariga zid bo'lgan ayrim normalar loyiha matnidan chiqarib tashlandi, mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari aniqlashtirilib, yong'indan majburiy sug'urta qilishga oid normalar takomillashtirildi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi yong'inlarning oldini olish tizimini takomillashtirish, inson hayoti va sog'lig'ini ishonchli himoya qilish, yong'in xavfsizligi bo'yicha aholi va tashkilotlar mas'uliyatini yanada kuchaytirish, sohada nodavlat sektor ishtirokini kengaytirish hamda yong'in oqibatida yetkaziladigan zararlarining kafolatli qoplanishiga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

Dil so'zi

MEHNAT ORTIDAN QADR TOPDIM

Prezidentimiz farmonini ko'rdingizmi, "Shuhrat" medali bilan taqdirlanibiz! Bunday mukofotni Gujimsizda ilgari hech kim olmagan, siz birinchi bo'ldingiz.

Toshkentda ishlaydigan ukam Jasurning telefonida ayrgan bu gaplardan ochig'i, xushib qoldim. So'ng qizim Sevinch qo'ng'iroq qildi. Ishga borsam, bir guruh hamkasblar quchoq ochib kutib olishdi. Boshlig'imning "Jamoamizda davlat mukofoti olganlar yana bittaga ko'paydi, rahmat sizga, tabriklayman!" deb bag'riga bosgan men butkul hayratga soldi.

Shu kunioq "Gujimsizlik Qahhor Saidovning bolasi davlat mukofotiga sazovor bo'libdi", degan xushxabar Zarmitanu Qo'shrabotdan oshib, birpasda olisidagi qarindoshlar qolig'iganda yetib bordi.

Otam qirg' yil geologlar bilan yelkadosh bo'lib ishladi, ularga haydovchilik qildi. U kishiga havasim ortib, qishlog'imizdagi yuzdan ortiq odamlar, yoshlar geologiya sohasiga qiziqdi, bugun ularning barchasi taqdirini shu tizim bilan bog'lagan.

Kamtarona faoliyatimni yuksak baholab, davlat mukofotiga loyiq ko'rgan uchun Prezidentimizga rahmat. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan, kattayu kichik orasida hurmatimni osmon qadar ko'targanidan minnatdorman.

Bundan keyin ham samarali mehnat qilib, mamlakatimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligiga munosib hissa qo'shaman, deb ishonitiraman.

Hamza SAYITOV, "O'zbek geologiya qidiruv" AJ Samarqand markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi buldozer mashinisti.

DAVLAT BOSHQARUVIDA ADOLAT SIMFONIYASI

Milliy davlatchilik va jahon tarixida beqiyos o'rin egallaydigan ulug' davlat arbobi, sarkarda hamda buyuk temuriylar davri Renessansi asoschisi Amir Temur hayoti va bosib o'tgan shonli yo'li bugun chin ma'noda avlodlarga namuna bo'lmoqda. Mamlakatimizda uning shaxsiyatini yanada chuqurroq o'rganish hamda targ'ib etish yo'lida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari o'rnatilgan. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo'lga qo'yilgan, "Amir Temur" ordeni ta'asis qilinib, ko'plab ko'chayu xiyobonlariga nomi berilgan.

Amir Temur tavalludining 690-yilligiga

So'nggi yillarda ham buyuk bobokolonimizning betakror shaxsiyati, bashariyat kechmishi hamda Turon tamaddunidagi o'rni, shuningdek, temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o'rganish yo'lida qator ishlar hayotga tatbiq etilyapti. Davlatimiz rahbarining shu yil 5-fevraldagi "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiyi Sohobqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishdagi ishlariga yangicha sur'at bag'ishladi.

Mazkur hujjatga muvofiq, joriy yilda yurtimizda Sohobqiron tavalludining 690-yilligi keng nishonlanmoqda. Aprel oyi "Amir Temur oyig'i" deb e'lon qilinib, uning doirasida umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, harbiy qismlar va harbiy ta'lim maskanlari, korxonalar va tashkilotlar, mahallalarda temurshunos olimlar, yozuvchilar va san'atkorlar ishtirokida uchrashuvlar, badiiy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirilmoqda.

Haqiqatan ham, XIV-XV asrlar chorrahasida O'rta Osiyoning markazida buyuk temuriylar davri yulduzlar turkumi kabi charaqalab, Sharqni ikkinchi Renessansning yorqin nuri bilan yoritdi. Ushbu hodisa nafaqat

san'at va madaniyat, me'morchilik, adabiyot hamda ilm-fanning gullab-yashnashi, balki mustahkam huquq poydevoriga asoslangan davlat qurilishi davri ham edi.

Qudratli saltanat asoschisi Amir Temur mohir sarkarda bo'lish bilan birga, qonun ijodkori ham edi. U yaratgan huquq o'lkada tartib va barqarorlikni ta'minladi. Mana shu avlodning vakillari, xususan, shoh va shoir Mirzo Ulug'bek esa ilm-fan hamda ta'lim rivoji uchun qonunning ahamiyatini ochib berdi.

Sohobqiron o'z saltanatini nafaqat mohir temirchi kabi qilichning qirrasini, balki ipak kabi qonunlarning haririg'i bilan ham mustahkamladi. Uning tuzuklari davlatning tamol toshiga aylandi, qat'iyat moslashuvchanlik bilan uyg'un tarzda davlat hududida tartib-intizomning ustuvorligini ta'minladi.

Amir Temur o'z tuzuklarida davlatni idora qilish tadbirlari, kengashlar, vazirlar va amirlarni joy-joyiga qo'yish, siphon va boshqalar xususida alohida to'xtalib o'tgan. U hamma narsaga o'ta muhim masala sifatida qaragan. Ulug' ajdodimiz yaratgan qonunlar

xuddi quyosh nurlaridek hayotning barcha jabhasini qamrab oldi. Xususan, qo'shin temir intizomga bo'syundi, ma'muriyat aniq va xotolarsiz ishladi, qonun himoyasida savdo rivojlandi, sud ishlari adolatni ta'minladi. Ushbu qonunlar xalq tinchligi va farovonligini himoya qiluvchi ko'rinmas posbonlarga mengzalardi.

Buyuk bobomiz har bir ishda adolatni shior tutdi. U o'z fuqarolarining huquqlarini himoyaga oldi, mansabdor shaxslar va harbiylarning o'zboshimchaliklarini chekladi, hokimiyat suiste'molig'i yuz berishining oldini oldi. Shunday qilib, huquq Amir Temur qudratini mustahkamlash, uning fuqarolari o'rtasida hurmat va ishonch qozonishining kuchli vositasiga aylandi. Barqaror davlat barpo etishning poydevori bo'ldi.

Buyuk temuriylar davri kuch, huquq va madaniyat uyg'unligidagi simfoniyaning yaratgan davr bo'lib, uning ohangi asrlar osha bizgacha yetib kelmoqda. O'sha davrdagi davlat va huquq tizimi qonun kuchi hamda madaniyat taraqqiyoti o'rtasidagi mutanosiblikning ahamiyatini chuqur anglash asosida qurilgan.

Donolik va farosat egasi bo'lgan hukmdor qonunda nafaqat boshqaruv

balki madaniyatni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish qudratini ham ko'rdi. O'sha davrda yaratilgan huquqiy me'yorlar tartib va barqarorlikni ta'minlabgina qolmay, san'at hamda fan-talimning gullab-yashnashiga ham xizmat qildi. Madaniyat, o'z navbatida, huquq tizimini boyitib, unga insonparvarlik va ma'naviy qadriyatlarini kiritdi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi uchun temuriylar merosi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Qonun kuchi va madaniyat taraqqiyoti o'rtasidagi mutanosiblik masalasi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Kuchli va adolatli huquqiy tizim madaniyat gullab-yashnashi, ilm-fan va san'at ravaq topishi uchun yordam berishi kerak. Shunday qilib, amaliyot hamda madaniyat taraqqiyoti va farovonligiga erishish mumkin.

Buyuk temuriylar qoldirgan merosdan donishmandlik asosida yaratilgan hokimiyat hayotning turli jabhalarida uyg'un tarzda mavjud bo'lish uchun sharoit yaratishga qodir ekanini o'rganish mumkin. Ya'ni huquq madaniyatni himoya qilishi va qo'llab-quvvatlashi, madaniyat esa, o'z o'rinda, huquqni boyitishi va yuqoriga olib chiqishini anglatishimiz dardkor.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyodagi ikkinchi Renessans davri nafaqat mintaqada tarixida, balki jahon

madaniyatida ham chuqur iz qoldirdi. Bu davlatning kuchi nafaqat harbiy qudratda, balki huquq va madaniyat qadri kabi o'ladigan hukmdorlarning donoligida ekanini ko'rsatdi. Buyuk temuriylar tajribasining dolzarblig'i shundaki, uning saboqlari har bir inson o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan adolatli va farovon jamiyat qurishga yordam beradi.

Adolat, insonparvarlik, bilimga intilish tamoyillari Yangi O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti asosini tashkil etadi va uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida dasturlaniladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy davlat va xalqaro huquq normalariga tayanib, demokratik institutlarni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, gender tengligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar faol davom ettirilayotir. Ochiqlik, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlikka sodiqlik ushbu yangi Uyg'onish davrining asosiy elementlari hisoblanadi. Ta'lim, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish, bunyodkorlik hamda madaniy rang-baranglikni qo'llab-quvvatlash maqsadlarimizga erishish va farovon kelajak qurishda mustahkam zamindir.

Demak, Amir Temur va buyuk temuriylar davrida shakllangan davlat boshqaruvi tajribasi adolat, qonun ustuvorligi va madaniyat uyg'unligiga asoslangan mukammal tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu meros nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi zamonaviy davlat qurilishi uchun ham muhim nazariy va amaliy saboq manbaidir. Qonun va madaniyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, inson qadriini ulug'lash va ilm-fanga tayanish kabi tamoyillar jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Shu ma'noda, buyuk temuriylar merosi Yangi O'zbekistonda adolatli, farovon va ma'naviy barkamol jamiyat barpo etish yo'lida ihsomlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Saidmurod SATTOROV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dekani,
Mansur YUNUS,
shu akademiya dotsenti.

Moziydan sado UCH MING YILLIK SHAHAR QOLDIQLARI

Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani hududida amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar natijasida taxminan uch ming yillik tarixga ega ko'hnalar shahar qoldiqlari aniqlandi. O'tgan asrning 60-yillarida ilk bor "Bandixon II" nomi bilan qayd qilingan ushbu qadimiy manzilgohni tizimli o'rganish ishlari 2023-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan. Ayni paytda Xitoyning Shimoli-g'arbiy universiteti, Termiz davlat universiteti va Termiz arxeologiya muzeyi olimlaridan iborat qo'shma ekspeditsiya keng qamrovli tadqiqot olib bormoqda.



Ilmiy tahlillarga ko'ra, bu manzilgoh miloddan avvalgi X - VIII asrlarga tegishli bo'lib, Bandixon vohasida aniqlangan eng yirik arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi.

- Bandixon II arxeologik yodgorligi qadimgi Baqtriya hududida shakllangan shahar madaniyatining yorqin namunasidir, deydi Shimoli-g'arbiy universitet vakili Chju Szyansong. - U bronza davri tanazzulidan keyingi hamda ahamoniylar davlati hukmronligi boshlanishdan oldingi davrga oid, o'sha zamonadagi shaharsozlik an'analariga haqida tasavvurni boyitadi. Qazishmalar jarayonida aniqlangan sharqiy mudofaa devori alohida e'tiborga loyiq. Devor poydevor qazilmasdan barpo etilgan, uning tag qismi keng va ayrim joylarda ikki metrdan ortiq balandlikda saqlanib qolgan qadimgi quruvchilarning amaliy tajribasi va muhandislik yechimlarini ko'rsatadi. Devor tarkibida omborxonalar sifatida xizmat qilgan tor joyning mavjudligi ham aniqlandi.

Yodgorlikning ichki qismida o'zaro bog'langan beshta xona topilgan, ulardan turarjoy sifatida foydalanilgan taxmin qilinmoqda. Xonalardan birida baland supa va yoritish vositasi qo'yilgan nishaning izlari saqlanib qolgan bu yerdagi kundalik turmush tarzidan dalolat beradi.

Arxeologik topilmalar orasida kulochilik buyumlari, tosh qurollar hamda bronza davri tayyorlangan ayrim ashyolar mavjud. Kulochilik mahsulotlari Yaz madaniy an'analarga mansub boshqa yodgorliklar bilan uyg'unlik kasb etadi. Donni qayta ishlashga mo'ljallangan tegimon toshlari, pichoq va o'q uchlari esa aholining xo'jalik hamda maishiy faoliyatini yoritib beradi. Dengiz chig'anoqlari topilishi esa o'sha davrda uzoq hududlar bilan aloqalar bo'lganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunga qadar umumiy maydoni taxminan 10 ming kvadrat metrni tashkil etuvchi manzilgohning atigi 300 kvadrat metri o'rganilgan bo'lsa-da, qo'liga kiritilgan natijalar uning tuzilishi va hayot tarzini tasavvur qilish uchun yetarli asos yaratmoqda. Ilmiy tadqiqotlarni kelgusida yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

Farhod ESONOV ("Xalq so'zi").

«Aqli» shifoxona:

TA'LIM VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida zamonaviy ko'p tarmoqli klinika - "aqli" shifoxona faoliyat yurita boshladi. Unda bir paytning o'zida ham o'qish, ham nazariy bilimlarni amaliyot bilan o'zaro uyg'unlashtirish imkoniyati yaratildi.

Qulaylik



O'ziga xos ilmiy-amaliy laboratoriyada tibbiyotdagi eng ilg'or xalqaro tajribalar bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Ayni jarayonda raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsad qilingan.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalari tasarrufida bir nechta ixtisoslashtirilgan ana shunday markazlar faoliyat ko'rsatmoqda, - deydi institut rektori Akmal Siddiqov. - Bunday majmualarda talabalar o'qishdan so'ng o'z yo'nalishida amaliy faoliyat olib borish imkoniga ham ega. Bu bitiruvchilarni xalqaro mehnat bozorida raqobatdosh mutaxassis bo'lishini ta'minlaydi.

Aytish joizki, jahon andozalari darajasida jihozlangan ushbu markazda Migratsiya agentligi bilan hamkorlikda xorijda ishlash istagida bo'lgan o'rta va kichik tibbiyot xodimlari uchun qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish ham rejalashtirilmoqda.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

Migratsiyaga ko'maklashuvchi markaz

Qarshi shahrida Germaniyaning "Prosica GmbH" kompaniyasi bilan hamkorlikda yoshlarni nemis tiliga o'qitib, tartibli migratsiyaga yuborish markazi ish boshladi.

Imkoniyat

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Qashqadaryo viloyatida ta'lim, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish va bandlegini ta'minlash sohasida chet davlatlar bilan aloqalar ko'lami kengayib bormoqda. Joriy yilda Germaniyaning "Prosica

GmbH" va "Motiba" kompaniyalari ko'magida 3 ming, 2030-yilgacha 50 ming nafar yoshni nufuzli nemis kompaniyalariga ishga yuborish reja qilingani ham shundan dalolat beradi. Bunda har oy germaniyalik ish




beruvchi kompaniyalar vakillari viloyatga kelib, nomzodlar bilan to'g'ridan-to'g'ri suhbat o'tkazadi

va shu yerning o'zida mehnat shartnomalari rasmiylashtirilishi ko'zda tutilgan.

Qarshi shahrida tashkil etilgan yangi markaz yoshlarning nemis tilini o'rganishi va kelgusida xorijda muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ochilish marosimi ishtirokchilari markazda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirib, bugundan nemis tilini o'rganishga kirishgan tinglovchilar bilan yaqindan muloqot qildi.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").



BIR KUNLIK DABDABA: KIMGA FOYDA, KIMGA ZARAR?

Inson borki, hayotidagi eng quvonchli kunlarini yaqinlari davrasida, el-yurtga osh berib, orzu-havas bilan nishonlashni istaydi. To'y ikki oila, ikki nasab va qadriyatlarining tutashuvidir. Biroq bugungi kunda ushbu muqaddas ana ma'naviy bayramdan ko'ra ko'proq kimo'zar musobaqaga, maqtanish va dabdaba namoyishiga aylanib borayotgani achinarli.

Mulohaza

Xalqimizda "To'y - to'ydek bo'lsin" degan naql bor. Ammo bu "To'y qarz va isrof bilan bo'lsin", degani emas. Muqaddas kitobda ham ushbu masalaga alohida urg'u berilgan.

To'yning qiymati dasturxonadagi taomlar soni yoki restoranning hashami bilan emas, balki o'sha xonadondagi mehroqibat, munosabatlardagi samimiyat bilan o'lchanadi. Kimdir yuz millionlab mablag' sarflab ham huzur topmasligi, kimdir esa kamtarona, ammo samimiyat davrda baxt poydevorini qo'yishi mumkin.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilsak, bugungi kunda o'rtacha dabdabali to'y uchun sarflanadigan mablag' yosh oilaning kamida 5 - 10 yillik moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yetadi. Afsuski, jamiyatimizda "Odamlar nima deydi?" degan soxta, keraksiz va koni zarar andisha ko'pchilikni

iqtisodiy jarlikka tortmoqda. Birgina misol, to'ydan keyingi "qarz uzish marafoni" yosh oilalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yangi qurilgan oilalardagi ajrimlarning sezilarli qismi aynan moddiy yetishmovchilik va to'ydan qolgan qarzlar tufayli kelib chiqadigan tortishuvlar natijasidir. Qolaversa, "Boshqalardan kam bo'lmalik" taqlidi ota-onalarning ham sog'lig'i va ruhiyatiga katta zarba beryapti. "Nega shuncha pulni to'yga ketkazdik?", "Buni olmaganimizda yaxshi bo'lardi", degan afsus-nadomat keyinchalik ko'p eshitiladi. To'y tantanasi o'tib ketadi yoki uning oqibati uzoq davom etadi, O'rtadagi munosabatlari, ayniqsa, qaynoma va kelin o'rtasida sovuqchilik boshlanadi.

Iqtisodchi sifatida shuni ta'kidlashni istardimki, to'y xarajatlari optimallashtirish

- ziqnalik emas, balki oqillikdir. To'yning dabdabasidan voz kechib tejalgan mablag'ni qanday foydali ishlariga sarflash mumkinligi haqida chuqurroq o'ylab ko'raylik.

Birinchi o'rinda, yosh oila uchun nima zarur - uy-joy va maishiy sharoit. To'yga keragidan ortiq ishlatadigan mablag'imizni

“Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yangi qurilgan oilalardagi ajrimlarning sezilarli qismi aynan moddiy yetishmovchilik va to'ydan qolgan qarzlar tufayli kelib chiqadigan tortishuvlar natijasidir.”

ipoteka uchun boshlang'ich to'lovga yoki xonadonni sovitkich, kir yuvish mashinasi kabi ko'plab zarur jihozlar bilan ta'minlashga sarflasak, bu yosh oilaning ro'zg'orini tezroq tiklab olishiga yordam bermaydimi?

Oilaviy baxt, mustahkam kelajak uchun yoshlarga lozim bo'ladigan yana bir zarurat, shubhasiz, ilm. Ilm - hech

qachon qadrsizlanmaydigan yagona boylik, ta'lim uchun tikilgan sarmoya esa eng barakalidir. Ko'p hollarda to'ydan keyin kelin yoki kuyovning o'qishi uchun shartnoma pulini to'lashga mablag' qolmaydi. To'ydan tejalgan pulni xorijiy tillarni o'rganish, magistratura yoki kasbiy sertifikatlar olishga yo'naltirish lozim va bu

butun umrlik daromad manbaiga aylanadi. Gapiarsak, gap ko'p, bir kechalik ziyofat puli kichik bir biznes boshlash yoki foydali investitsiya uchun yetarli mablag' bo'lishi mumkin.

Ta'bir joiz bo'lsa, to'ydagii isrofgarchilik yangi qurilayotgan oila poydevoriga qo'yilgan "mina"dir. Ko'pincha to'ydan keyingi shirin damlar o'rni "Kimdan

qancha oluvdik?", "Qachon qaytaramiz?" degan iztirobli savollar egallaydi. Yosh kelin-kuyov hali bir-birini tushunib ulgurmay, moddiy taqchilik va ruhiy bosim ostida qoladi. Shunday ekan, yuzlab, minglab qorni to'q odamlarni ovqatlantirishga ketadigan pulga yoshlarimiz dunyo kezishsin, oilaviy hayotni go'zal, betakror xotiralar bilan boshlashsin. Ishoning, ikki yoshning sayohatga chiqishi, yangi shaharlar ko'rish ularning munosabatlari mustahkamlaydi va bir umrlik shirin xotira bo'lib qoladi.

Odamlar nima desa-desin, tejankorlik - donolikdir! Oldindan rejalashtirilgan, har bir tiyni hisoblangan kamtarona to'y yangi oilaga faqatgina xotirjamlik va baxt olib keladi. Farzandlarimizga o'zini ko'rsatish va dabdaba o'rni ga, tejankorlik va ma'naviyatni o'rgataylik.

Shahlo ERGASHEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Umumiqtisodiy fanlar kafedrasii mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor.

Prezident farmoniga ko'ra, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar muassisligida yangi ishlanmalarga asoslangan "spin-off" korxonalari tashkil etiladi.

Xalq so'zi Nardoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 329. Buyurtma G-1242. 23 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kottibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyotga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulg'iga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyotni kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 22.50 Topshirildi - 00.30 1 2 3 4 5 6